

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATIONS IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Moliyaviy qarorlar samaradorligini ta'minlashda hisobotlar tahlilining muhimligi

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna

Значение анализа отчетов в обеспечении эффективности финансовых решений

Джумаева Гулрух Джуракуловна

The importance of report analysis in ensuring the effectiveness of financial decisions

Jumaeva Gulrux Jurakulovna

Received: May 15, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** Ushbu maqolada moliyaviy qarorlar qabul qilishda samaradorlikka erishishning muhim omillari tarkibida buxgalteriya hisobi hamda hisobotlarining o'ri, ahamiyati, ularni ilmiy asoslarda tahlil qilish muhimligining nazariy jihatlarini yuzasidan fikr va mulohazalar bayoni keltirilgan.
- **Kalit so'zlar:** hamkorlik, boshqaruv, qaror, hisob, hisobot, ko'rsatkich, tahlil, barqarorlik, samaradorlik.
- **Abstract.** This article presents a statement of views and considerations on the theoretical aspects of the role and significance of accounting and reporting as important factors in achieving efficiency in financial decision-making, the importance of their analysis on a scientific basis.
- **Keywords:** cooperation, management, decision, account, report, indicator, analysis, stability, efficiency.
- **Аннотация.** В статье изложены взгляды и соображения относительно роли и значения бухгалтерского учета и отчетности как важных факторов достижения эффективности принятия финансовых решений, а также теоретические аспекты важности их анализа на научной основе.
- **Ключевые слова:** сотрудничество, управление, решение, расчет, отчет, показатель, анализ, устойчивость, эффективность.

KIRISH

O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lida ulkan maqsadlarni belgilaganligi va unda ijobiy natijalarga erishilayotganligini tashqi savdo ko'lamida bozorlar va moliyaviy hamkorlar tarkibining kengayayotganligida ham ko'rish mumkin. Xususan, "2024 yilda O'zbekiston tashqi savdosida YI ulushi tovar ayirboshlashda 9,7 foizni, eksportda 6,3 foizni, importda 12 foizni tashkil etdi. YI esa O'zbekistonning savdo sheriklari

reytingida Xitoy va Rossiyadan keyin 3-o'rinni egalladi"[1]. Xususan, har qanday moliyaviy hamkorlik mukammal va puxta ishlab chiqilgan moliyaviy qarorlarga hamda makroiqtisodiyotning asosiy bo'g'ni bo'lgan korxona va tashkilotlar, yoxud xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga bevosita bog'liq. Biroq bugungi global iqtisodiyot hamda keskin raqobat muhitining mavjudligi xo'jalik yurituvchi subyektlar boshqaruvini tubdan takomillashtirish, uning sifat jihatidan yangi tuzilmasini shakllantirish har qanday moliyaviy qarorlar samaradorligini o'z-o'zidan ta'minlaydigan mexanizm bo'la

olmaydi. Chunki, dastlab ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, innovatsion mahsulotlarni yaratish orqali raqobatdoshlikni ta'minlash va tarkibiy o'zgarishlar qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu jarayonlar xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya – xo'jalik faoliyatida unumdorlik va samaradorlikni, moliyaviy natijadorlikni ijobiy bo'lishini ta'minlashning muhim talabi hisoblanadi. Ayni ushbu holat axborotlar tahliliga, xususan, buxgalteriya hisobotlari tahlilini obyektiv zaruriyatga aylantiradi va bunda moliyaviy qarorlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning ta'sirini hisoblab borish imkoniyati ta'minlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish hamda raqamlashtirish jarayonlarida buxgalteriya hisobining nazariy va uslubiy jihatdan takomillashib, uni turlari yoxud quyi tizimi kundankunga shakllanib bormoqda. Xususan, nazariy manbalar tahliliga ko'ra [2], [3], dastlab milliy iqtisodiyotimizda moliyaviy va boshqaruv hisoblari buxgalteriya hisobining tarkibiy qismi sifatida qayd etilgan bo'lsa, keyingi davrda iqtisodiy adabiyotlarda "moliyaviy hisobot tahlili", "solliq hisobi va hisoboti", "strategik hisob", "ekologiya hisobi", "dinamik hisob" tushunchalari buxgalteriya hisobining quyi tizimi sifatida yoritilmoqda.


Nazariy manbalar tahlilidan ko'rinadiki, chet ellik iqtisodchi olimlar moliyaviy, boshqaruv va solliq hisoblarini hisobning alohida turi va quyi tizimi sifatida e'tirof etishgan. Jumladan, iqtisodchi olimlar D.Morse va J.Zimmermanlar buxgalteriya hisobini uchta quyi tizimga ajratadi: (1) boshqaruv hisobi; (2) moliyaviy hisob; (3) solliqlar hisobi. R. Aynsvors, D. Deines, R.D. Riumli va K.X. Larsonlar buxgalteriya hisobini o'zaro bog'liq bo'lgan to'rtta quyi tizimga bo'ladi: (1) Moliyaviy hisob; (2) Boshqaruv hisobi; (3) Solliqlar hisobi; (4) Tartibga soluvchi buxgalteriya hisobi. V.Robert, S.Entoni, S.Jemislal o'zlarining "Accounting principles" nomli kitobida quyidagilarni qayd

etadilar: "AQShda Moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi va solliq hisobi mohiyati jihatidan alohida jarayonlardir. GAAP – Moliyaviy hisobning, oliy rahbariyat – boshqaruv hisobining, IRS va kongress esa solliq hisobining tamoyillarini belgilaydi".

TAHLIL VA NATIJALAR

O'rganishlarimizga ko'ra, buxgalteriya orqali boshqaruvni axborot bilan ta'minlash jarayonida "hisob" va "hisobot" tushunchalari birgalikda qayd etiladi. Chunki, moliyaviy hisobning yakuni sifatida moliyaviy hisobotlar tuzilsa, boshqaruv hisobi natijasida tuzilgan hisobot ko'rsatkichlariga asosan boshqaruv qarorlari ishlab chiqiladi, solliq hisobining yakunida esa solliqlar bo'yicha hisobot tuziladi va mazkur hisobotlar tegishli tartibda rasmiylashtiriladi, foydalanuvchilarga taqdim etiladi. Shu nuqtai-nazardan ham xo'jalik hisobi tizimida faoliyat ko'rsatuvchi subyektlarda buxgalteriya hisobi va hisobotlarini quyidagicha tarkibda tasniflash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi va hisobotlarining tarkibini bunday tasniflash hisob va hisobot ko'rsatkichlaridan foydalanishda nafaqat o'ziga xos qulayliklarni yaratadi, balki hisobotlarda ifodalangan ko'rsatkichlar tarkibini aniqlash, ko'rsatkichlar mazmun-mohiyatini to'g'ri tahlil qilish, axborotlar xavfsizligini ta'minlash va ularni tizimlashtirish masalalarini hal qilishda ilmiy yondashuvlarni ta'minlaydi. Xususan, moliyaviy, boshqaruv va solliq hisoblari hamda hisobotlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini ma'lumotlar bilan to'ldiradi. Bu esa, buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalanuvchilar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'liq olish imkonini beradi. Shuningdek, buxgalteriya hisobining ushbu tarkibiy bo'limlari oldiga qo'yilgan vazifalar va ularning ijrosida faqatgina o'zaro bog'liqlik bilan chegaralanib qolmasdan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ularning o'ziga xos xususiyatlari, farqli jihatlarini ham nazarda tutishni taqazo etadi.



1- rasm. Buxgalteriya hisobi va hisoboti turlarining tasnifi [1]

Shu nuqtai-nazardan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarish, samaraqorlik ko'rsatkichlarini yaxshilash, moliyaviy hamkorlarni tanlash va moliyaviy qarorlar qabul qilishda buxgalteriya hisobotlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.


Tahlillarimiz korsatadiki, xalqaro moliyaviy tahlilda investorni asosan moliyaviy hisobotlarning o'zigina emas, balki, ularga yozilgan izohlar, yoritishlar, tushuntirishlar, hisobot davridagi va hisobot davridan keyingi o'zgarishlar bayoni ko'proq qiziqtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi Qaroriga [4] ko'ra, moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartiblarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish davr talabi ekanligini nazarda tutadigan bo'lsak, moliyaviy qarorlar samaradorligi hisobotlar tahliliga bog'liq. Chunki, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati, uni yo'lga qo'yishdagi kafolatlangan erkinliklari hamda ma'lum bir dastaklar asosida tartiblanuvchi birliklari doimo tahliliy yechimlar asosida boshqarib boriladi. Xuddi shu boshqaruv oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, sabab-oqibat bog'lanishlaridagi uzviylik moliyaviy hisobot tahlilini qaror qabul qilishdan oldin o'tkazishni taqazo etadi. Chunki, buxgalteriya xizmatining natijaviy ko'rsatkichi moliyaviy hisobotlar bo'lib, uning asosiy maqsadi va vazifalari investitsiyalar jalb qilish va kreditlar berish to'g'risida qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi omil va foydali bo'lishi, undan foydalanuvchilarga pul

mablag'larining kelgusidagi harakatini baholashga yordam berishi, mulkiy, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardagi o'zgarishlarni haqqoniy va shaffof aks ettirilgan axborotni taqdim etishdan iborat.

Aynan moliyaviy hisobotlar tahlili orqali hisobot ko'rsatkichlaridan foydalanuvchilar o'zlariga kerakli ma'lumotlarni oladilar. Tadqiqotlarimizga ko'ra, moliyaviy hisobot tahlili moliyaviy qarorlar qabul qilishning muhim omili hisoblanadi. Bunda moliyaviy hisobot tahlili manbalarning to'liqligi, ishonchiligi, haqqoniyliги alohida ahamiyatga ega bo'lib, tahlil natijasida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy resurslarini ko'paytirish, ularni hisob-kitob qilish va samaradorlikka erishish imkoniyatlarini oldindan baholash va samarali moliyaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yuzaga chiqadi. Shuningdek, moliyaviy hisobot tahlili yordamida tanlangan bir qancha xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarini bir vaqtda qiyosiy baholash mumkin bo'ladi.

Globalizatsiya sharoitida har bir samarali boshqaruv qarori zamonaviy rahbarning qarorlarni qabul qilish mezonlarini bilish, o'z faoliyat yo'nalishidagi aniqlangan muammolarni hal etishga tizimli yondashish, tanqidiy tahlil, moliyaviy manbalardan foydalanish holatini baholash taktikalari va strategiyalariga alohida e'tibor qaratishiga bevosita bog'liq bo'lib, ushbu jarayonlar uzviy ketma-ketlikdagi quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi:



2-rasm. moliyaviy manbalardan foydalanish holatini baholash taktikalari va strategiyalari

Ma'lumki, moliyaviy hisobot tahlili – eng samarali moliyaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilishning barcha bosqichlarida boshqaruv sifati va samaradorligini ta'minlashning muhim omili sifatida qatnashadi. Shu sababli ham moliyaviy hisobotlar tahlilini yuqori professionallik bilan iqtisodiy-matematik modellar hamda axborot texnologiyalari yordamida bajarish davr talabi.

Tahlillardan ko'rinadiki, xo'jalik yurituvchi subyektlarda o'tkaziladigan audit jarayonlarida moliyaviy hisobot auditi son va salmoq jihatidan operatsion hamda muvofiqlik auditlariga nisbatan ustuvorlik qiladi. Chunki, moliyaviy hisobot auditini o'tkazishda auditor tahliliy amallar yordamida hisobotning to'g'riligi, aniqligi va haqqoniyligini tasdiqlovchi auditor fikrini berishi bilan bir qatorda, tashqi foydalanuvchilarga oshkor etilgan audit xulosasiga ko'ra, tashqi foydalanuvchilar ham moliyaviy hisobot tahlilini mustaqil ravishda amalga oshiradilar.

Chunki, moliyaviy hisobot tahlili –tadbirkorlik subyektlarining barcha faoliyat turlari va undagi jarayonlar hamda moliyaviy operatsiyalarni batafsil o'rganish, xolisona, aniq baholash, erishilgan natijalar yuzasidan amaliy xulosalarni tayyorlash, aniq chora-tadbirlarni belgilash va ularning ijrosini ta'minlashdagi mas'ullarni aniqlashtirish imkonini beradi.

Shuning uchun ham moliyaviy hisobotlar tahlili korxonalarining boshqaruv jarayonini takomillashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, boshqaruv sifatini ta'minlash, raqobatbardoshligini baholashda muhim omil hisoblanadi.

Tahlil bilish nazariyasining asosiy quroli bo'lganligi sababli ham zamonaviy moliyaviy menejmentda xo'jalik yurituvchi subyektlarning samarali faoliyatini yo'lga qo'yish, munosib moliyaviy hamkorlarni tanlash, moliyaviy zararlar hamda yo'qotishlarni oldini olish, iqtisodiy va moliyaviy holatni yaxshilash, tahlikalarga bardoshlikni oshirish, moliyaviy qonun buzilishlarini, yoxud moliyaviy talon-tarojlarni oldini olishda, moliyaviy nazorat hamda moliyaviy intizom qoidalariga qat'iy amal qilishda moliyaviy hisobot tahlili fan sifatida iqtisodiy fanlar tizimida yanada takomillashib, kundalik hayotiy zaruratga aylanib boraveradi.

Hozirgi vaqtda tahlil rivojlanishning yangi bir bosqichiga qadam qo'ymoqda. Bu borada tahlilning tubdan yangi nazariyasi, uslubiyati, amaliyoti shakllanmoqda. "O'zbekiston va xorijlik olimlar tomonidan tahlilning boshqaruvda operativlikni ta'minlashga imkon beruvchi, joriy va istiqboldagi rivojlanishni belgilab beruvchi, iqtisodiy va moliyaviy axborotlar oqimining shakliga (moliyaviy, boshqaruv) mos tushuvchi, kommunikatsiya texnologiyalar, matematik modellar, statistik metodlarga asoslangan shaklini yo'lga qo'yishga harakatlar qilinmoqda"[5].

Moliyaviy hisobot tahlilini tashkil etishning muhim jihatlari va qoidalarini bayon qilishda avvalo, tahlil so'zining ma'nosini izohlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, tahlil

so'zi grekcha "analysis" so'zini o'zbek tilidagi tarjimasini bo'lib, "butunni bo'lish" yoki "ajratish" ma'nolarini beradi. Ilmiy jihatdan qaralganda tahlil odatiy holatda butunni detallashtirish, ya'ni bo'laklarga bo'lish yo'li bilan uning tarkibiy qismini o'rganish tushiniladi.

Aynan nazariy manbalar tadqiqotidan ko'rinadiki, real voqelikda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni o'rganishda faqat tahlilni o'zi yetarli bo'lmaydi. Shu sababli ham o'rganilayotgan to'plamning ayrim birliklari orasidagi aloqalar va o'zaro bog'liqliklari aniqlashda "sintez" usulidan foydalaniladi.

"Sintez" asli grekcha "syntezis" so'zidan olingan bo'lib, "bir-lashtiraman", "qo'shaman" ma'nosiga ega bo'lib, tahlil natijalarini umumlashtirishga yordam beradi.

Keng qamrovga ega bo'lgan tahlil tushunchasi turli soha va yo'nalishlarda qo'llaniladi. Fan va amaliyotda tahlilni juda ko'p turlarini, xususan, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy, loyihaviy, huquqiy, kimyoviy, fizikaviy, matematik, statistik tahlil kabi turlarini uchratish mumkin. Ular albatta bir-biridan o'rganayotgan obyektlari, maqsadlari va o'rganish usullari bilan farq qiladi. Aynan, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlari tahlili ham iqtisodiy, ham moliyaviy tahlilga asoslanadi.

Chunki, iqtisodiy-moliyaviy jarayonlarning natijalari ifodalan-gan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari, ularning o'zgarish tendensiyalari nafaqat iqtisodiy, moliyaviy tahlil usullari, balki, mantiqiy tekshirish usullari orqali ham amalga oshiriladi. Shuning uchun ham moliyaviy hisobot tahlili uch bosqichdan o'tadi: jonli tasavvur, mantiqiy tafakkur va amaliyot. Aynan ushbu uch bosqich moliyaviy hisobot tahlilini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari yuzaga chiqaradi.

Moliyaviy hisobot tahlilini tashkil etish qoidalarini uning o'tkazilish qamrovi yoxud shakliga bog'liq. Xususan, moliyaviy hisobot tahlili o'tkazilish shakliga ko'ra ikki turga ya'ni, ichki va tashqi shakllarga bo'linadi. Aynan auditning moliyaviy hisobot auditini nazarda tutiladigan bo'lsa, moliyaviy hisobot tahlilining tashqi shakli o'zining qoidalarini va huquqiy, ilmiy-nazariy asoslari ko'proq moliyaviy hisobot auditi talablariga moslashadi. Shuning uchun ham moliyaviy hisobot tahlilini tashkil etishda uning ichki va tashqi shakllariga ahamiyat qaratish va ularni tarkiblash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Moliyaviy hisobot tahlilini tashkil etishning tashqi shaklida cheklangan axborotlarga asoslanish, xususan, subyektlarning umumlashgan moliyaviy ko'rsatkichlarini o'zida mujassam etgan moliyaviy hisobot shakllaridan foydalanishni taqazo etadi. Chunki, subyektlarning moliyaviy ahvoli, natijalari, pul oqimlari, xususi kapitali holati va omillar ta'sirini o'rganishda, tahlil natijalarini ochiqlovchi korxonaning tijorat siriga tegishli bo'lgan ma'lumotlarining daxlsizligi ta'minlanishi shart. Moliyaviy hisobotning tashqi tahlilini o'ziga xos xususiyatlarini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

□ tahlilchilar va axborotdan foydalanuvchilar

ko'lamining chegaralanmaganligi;

□ tahlil subyektlarining maqsadi va manfaatlarining turlichaligi;

□ ochiq va e'lon qilingan moliyaviy hisobot shakllaridagi ko'rsatkichlar bo'yicha tahlilning o'tkalishi;

□ qo'yiladigan tahliliy masalalar bo'yicha axbotor manbalarining cheklanganligi hamda tahlil natijalarining barcha uchun oichiqligi.

Moliyaviy hisobotning tashqi tahlilida hisobot elementlari sifatida ifodalangan ko'rsatkichlarga ko'ra, subyekt mulki va manbalarining, chetdan jalb qilingan mablag'larining samaradorligi, ularning o'zgarishi, subyekning to'lov layoqati va aktivlarining likvidligi, moliyaviy barqarorligi, mustahkamligi va iqtisodiy nochorligi, foyda va rentabellik, hamda reyting darajasi kabi masalalar o'rganiladi. Aynan, mamlakatimizda 2024 yil 1 fevraldan boshlab korxona va tashkilotlarning reytingini aniqlash borasida olib borilayotgan ishlarning sifati va samarasida tashqi moliyaviy hisobot tahlili va uning natijalari katta ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy hisobot tahlilini tashkil etishning ichki shaklida ichki auditda, yoxud korxona boshqaruvida foydalanilmayotgan rezervlarni aniqlash maqsadida korxonaning yetakchi mutaxassislari, soha vakillari tomonidan ichki nazorat tizimiga tegishli meyoriy-huquqiy asoslarga ko'ra tahlil o'tkazish jarayoni nazarda tutiladi. Bunda o'rganiladigan masalalarning ko'lamini va natijalarini ochiqlash masalalari bilan tashqi tahlil shaklidan farqlanishlar mavjudligini ko'rish mumkin. Xususan, ichki moliyaviy hisobot tahlilining axborotlar manbalari va o'rganiladigan masalalarning ko'lamini tashqi shakliga nisbatan kengligi, ya'ni faqat chop etiladigan moliyaviy hisobot shakllaridagi ma'lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, hisobning barcha manbalaridan, hisobdan tashqari manbalardan ham foydalaniladi, tahlil natijalari faqat mulkdor va boshqaruv rahbariga, yoxud huquqiy asoslarda belgilangan tartib va holatlarda nazorat organlariga taqdim etilishi mumkin.

Moliyaviy hisobot tahlilini tashkil etishning ichki shaklini alohida o'ziga xos xususiyatlari:

□ tahlil subyektlarining o'ta kichik doiraga egaligi;

□ tahlil natijalari korxona boshqaruviga, mulkdorlariga mo'ljallanganligi;

□ tahlil maqsadiga erishishda manbalardan foydalanish darajasining yuqoriligi;

□ tahlilni amalga oshirishda me'yoriy uslublar bilan birgalikda aniq reglamentlari belgilanmagan usullaridan ham foydalanish mumkinligi;

□ samarali va tezkor boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda chuqurlashtirilgan tahlil o'tkazish imkoniyatining borligi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlarimiz ko'rsatadiki, moliyaviy qarorlarning asoslanganligi va nafililik darajasini ta'minlashda tahlil ishlarini samarali tashkil etilish o'ziga xos tizimalohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, ushbu jarayonlar bir butunlikdagi, yaxlit tizim sifatida qaraladiki, unda tahlil manbalarini to'liqliligi, aniqliligi, tahlil usullarining ilmiy jihatdan to'g'riligi tanlanganligi, tahlil uchun saralangan hisobot ko'rsatkichlarining qayta ishlantirishchanligi, zamonaviy dasturlar asosida kompyuter texnologiyalarida bajarilishi hamda tahlilchilar salohiyati va tarkibiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Jumayeva Gulruh Jo'raqulovna - Qarshi davlat texnika universiteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasini professori / ЗНАЧЕНИЕ АНАЛИЗА Джумаева Гулрух Джуракуловна - Каршинский Государственный Технический Университет Профессор кафедры «Бухгалтерский учет и аудит» / Dzhumaeva Gulruh Dzhurakulovna - Karshi State Technical University Professor of the Department of Accounting and Auditing

► gulruh.jumayeva.68@mail.ru

■ <https://orcid.org/0009-0001-0614-406X>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Iqtisodiy sharh. №4 (40) 2025. 20-b. www.review.uz
- [2]. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2019.-512 b.
- [3]. Karimov A., Kurbanbaev J., Jumanazarov S., Xalilov Sh. Moliyaviy hisob va hisobot. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. - 400 b.
- [4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-461 1-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori. www.lex.uz
- [5]. Raximov M.Y., Kalandarova N.N. Moliyaviy tahlil. Darslik. / – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. 12-b.

Menejment va
marketing

Менеджмент и
маркетинг

Management and
Marketing